

GORLOZIN

PREPARATINI QO'LLASH BO'YICH A YO'RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQARILISH SHAKLI

Tabiiy o'simliklar ekstraktidan tarkib topgan, o'ziga xos hidga ega, jigarrang tusdagi (biroz cho'kma va xira ko'rinish bo'lishi mumkin) suyuq qiyom bo'lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – me'yorlash qoshig'i – dozator, (3) – qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi.

	100 ml
Qizilmiya ekstrakti (Glycyrrhíza glábra)	30 mg.
Kalendula ekstrakti (Caléndula officinális)	10 mg.
Moychechak ekstrakti (Matricária chamomílla)	10 mg.
Uzun kurkuma ekstrakti (Cúrcuma lónga)	10 mg.
Zanjabil ekstrakti (Zīngiber officinále)	10 mg.
Kubeba qalampiri ekstrakti (Piper cubeba L.)	10 mg.
Aloe ekstrakti (Alóe arboréscens)	10 mg.

Yordamchi moddalar: 100 ml.gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spiriti

PREPARATNING TA'SIRI

- Fungitsid va virostatik faollikni oshiradi;
- Yallig'lanish, antiseptik va mikroblarga qarshi xususiyatga ega;
- Immunitetni oshiradi;
- Qizilmiya va kalendula og'riqni yengillashtiruvchi; bo'shashtiruvchi, yallig'lanishni oldini oluvchi, biriktiruvchi, balg'am ko'chiruvchi va antiseptik xususiyatlarga ega;
- Moychechak – shillik xalkum va tomoq yalliglanishini yengillashtiradi;
- Uzun kurkuma – yallig'lanishni oldini oladi, mikroblarni yo'qotadi;
- Dorivor zanjabil – yallig'lanishni oldini oladi;
- Kubeba qalampiri – yallig'lanishni oldini oladi, balg'am ko'chishiga yordam beradi;
- Aloe – yallig'lanishni oldini oladi, to'qimalar tiklanishiga yordam beradi.

QO'LLANILISHI

Gorlozin:

- Surunkali va o'tkir tonzillitlar (og'iz bo'shlig'ida infektion-yallig'lanish kasalligi bo'lgan bemorlarning og'iz bo'shlig'i shilliq qobig'ini tozalash uchun);
- Aniqlanmagan o'tkir tonzillit (agranulotsitar angina);
- Yuqori nafas yo'llarida ko'p uchraydigan va lokalizatsiyasi aniqlanmagan o'tkir infeksiyalar;
- Surunkali va atrofik faringitlarni kompleks davolashda va profilaktikasida qo'llaniladi.

QO'LLASH MUMKIN BO'LМАGAN HOLATLAR

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga yakka tarzdagi chidamsizlik.

QO'LLASH USULI VA DOZALARI

Yakka tarzda belgilinadi:

Ichkariga:

1 yoshdan 6 yoshgacha bolalarga	6 yoshdan 12 yoshgacha bolalarga	Kattalarga va 12 yoshdan katta bolalarga
1,0 ml. qiyom kuniga 3 mahal ichiladi	1,5 ml. qiyom kuniga 3 mahal ichiladi	2,5 ml. qiyom kuniga 3 mahal ichiladi

Preparat ovqatdan keyin qabul qilinadi.

Terapevtik ta'sir etishi uchun 15 kun davomida qabul qilish lozim.

Tashqariga:

Laringit va tonsillitda – kuniga 6-10 mahal (1:6 nisbatda tozalangan suv bilan aralashtirilgan) qiyom bilan og'iz chayqaladi.

Og'iz chayqash tartibi:

- Chayqash paytida yuzni tepaga qaratgan holda tilni tashqariga chiqarish lozim, shunda qiyom iloji boricha xalqumgacha tushishi kerak;
- Chayqash qiyomi iliq bo'lishi lozim, chunki sovuq shakli ahvolni og'irlashtirishi mumkin, issiq shakli esa kuydirishi va bemorda ortiqcha og'riq va stressni keltirib chiqarishi mumkin.
- Bodomsimon bezlarni ozuqlantirish uchun yaxshi, til ildizi qiyomni yutishga xalaqit bermasligi uchun BI tovushini talaffuz etish mumkin.
- Tartibli og'iz chayqash sharti davolash muddatidir, har bir chayqash kamida 30 soniya davom etishi kerak, chunki suyuqlik hiqildoqni to'liq yuvishi shart.
- Qiyomni yutib yubormaslik uchun nafas olishni to'g'ri taqsimlay olish kerak.

MAXSUS KO'RSATMA

Preparatni qabul qilishdan oldin, chayqating.

NOJO'YA TA'SIRI

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga organizm ta'sirchanligi yuqori bo'lган holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2°С dan +25°С gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz